

**TABIIY FANLAR BO'YICHA MILLIY O'QUV DASTURI VA XALQARO
BAHOLASH DASTURLARI, TALABLARI ORASIDAGI MUVOFIQLIK**

Boltayeva G.M.

Angren shahar 2-son Kasb-hunar maktabi biologiya fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Milliy o'quv dasturi o'quv-me'yoriy hujjat bo'lib, u o'quv reja va fanlarning o'quv dasturlari, o'qitish metodologiyasi va baholashni ishlab chiqishga asos bo'ladi. U bo'yicha yaratilayotgan yangi darsliklar, o'qituvchilar uchun qo'llanmalar – o'qituvchi kitoblari, mashq daftarlari, o'quv-metodik materiallar ta'limni rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada Milliy o'quv dasturining o'ziga xosligi va yangiliklari, ahamiyati haqidaso'z boradi.

Kalit so'zlar: dastur, darslik, o'quvchi mashq daftari, o'quv-metodik material, ta'lim, standart, davlat ta'lim standarti.

Аннотация: Национальная учебная программа является нормативным документом, который составляет основу для разработки учебных программ и предметных программ, методик обучения и оценивания. Развивать образование помогают новые учебники, пособия для учителя - учебники, тетради, учебные пособия. В статье рассматриваются особенности и новшества Национальной учебной программы.

Ключевые слова: программа, учебник, рабочая тетрадь, методическое пособие, образование, стандарт, государственный образовательный стандарт.

Annotation: The National Curriculum is a normative document that forms the basis for the development of curricula and subject curricula, teaching methodologies, and assessment. New textbooks, teacher's manuals - teacher's books, exercise books, teaching aids - help to develop education. The article discusses the specifics and innovations of the National Curriculum

Keywords: program, textbook, student workbook, teaching material, education, standard, state education standard

Hozir har bir soha muntazam islohotlar, yangilanish va yaxshilanishlar sari qadam qo'yimoqda, jumladan, ta'lim ham. Chunki dunyo ta'limi bugunning ehtiyojlari, mehnat bozorining talablariga moslashyapti. O'zgarishlar uchun esa mustahkam asos, poydevor kerak.

Ta'lim sohasidagi standartlar dunyo mamlakatlarida turli shakl va uslublarga ega. Fransiya, Yaponiya, Italiya, Xitoy, MDH mamlakatlarida ta'lim markazlashtirilgan va standartlar butun mamlakat uchun yagona o'quv dasturlari va rejalar ko'rinishida joriy etilgan. Ana shu mamlakatlarda ham so'ngi 10–20 yil ichida ta'lim standartlari bo'yicha yangiliklar, yangicha yondashuvlar yuzaga keldi. AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada kabi ta'lim markazlashmagan mamlakatlarda ham ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mavjud. Masalan, Shvetsiyada o'quv dasturi fanlar bo'yicha o'quv soatlarini tartibga solinmaydi. U yerda standartlar 5 – va 9-sinf bitiruvchilari fanlar bo'yicha egallashi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarni belgilab beradi⁰. AQSHda Ta'lim departamenti (vazirligi) bo'lsa-da, standartlarni ishlab chiqish haqidagi qarorlar shtatlar va ta'lim okruglari darajasida qabul qilinadi. Ta'lim markazlashmagan mamlakatlarda standartlar dasturlarga emas, asosan o'quv fanlariga nisbatan o'rnatiladi. AQSHda ta'lim standartlari mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Mahalliy standartlar maktabdan keyingi ta'lim va ish beruvchi

kutilmalariga mos kelishi, aniq, loʻnda va izchil boʻlishi, qatʼiy mazmun va yuqori darajadagi koʻnikmalarni aks ettirishi, davlat standartlarining kuchli va ahamiyatli jihatlarini qamrab olishi, oʻquvchilar global raqobatga tayyor boʻlishi uchun baland koʻrsatkichlarga ega boshqa mamlakatlarning tajribalaridan xabardor holda ishlab chiqilishi va faktik maʼlumotlarga asoslanishi kerak⁹¹.

Mamlakatimiz Xalq taʼlimi tizimidagi katta yangilanishlardan biri darsliklar va oʻquv-metodik adabiyotlarni zamon talablariga mos shaklda ishlab chiqishdir. Bu yoʻnalishda bugungacha ham oʻziga yarasha qoidalar, standartlar boʻlgan va ular oʻz vaqtida oʻzini oqlagan. Masalan, shu paytgacha umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standartlari bu borada asosiy yoʻlkoʻrsatkich vazifasini oʻtagan. Lekin bugun ilm-fan, texnika, texnologiya shiddat bilan rivojlanyapti, odamlarning ehtiyojlari va imkoniyatlari kengayyapti, yangi fan tarmoqlari va innovatsion yondashuvlar oʻrtaga chiqyapti.

⁹⁰ Н.М. Воскресенская. Опыт разработки стандартов образования в зарубежных странах // Вопросы образования(Россия). – 2004. – №3. – С. 143–153.

⁹¹ Curriculum: National and State Standards. Common Core State Standards Initiative // Elektron manba:
<https://www.educationworld.com/standards/>

Bunday vaziyatda dunyodan ortda qolmaslik uchun taʼlim sohasida jiddiy sa samarali oʻzgarishlar qilish zarur. Bu harakat esa mustahkam, puxta oʻylangan dastur asosida amalga oshirilishi kerak.

Taʼlimni isloh qilish boʻyicha keng amaliy harakatlar 2017-yildan boshlandi. Umumiy oʻrta taʼlimda eski davlat taʼlim standartlari (DTS) oʻrnini bosadigan va taʼlimga oʻzgarishlar kirita oladigan Milliy oʻquv dasturi ishlab chiqilmoqda.

Umumiy oʻrta taʼlimning Milliy oʻquv dasturi (MOʻD) oʻquv-meʼyoriy hujjat boʻlib, u oʻquv reja va fanlarning oʻquv dasturlari, oʻqitish metodologiyasi va baholashni ishlab chiqishga asos boʻladi. U boʻyicha yaratilayotgan yangi darsliklar, oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanmalar, mashq daftarlari, oʻquv-metodik materiallar taʼlimni rivojlantirishga xizmat qiladi. U pedagogik amaliyotni va baholash yondashuvlarini qoʻllab-quvvatlaydi va ushbu elementlarning barchasini birlashtirishga imkon beradigandasturdir.

Yangi Oʻzbekistonning 2022–2026-yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasida 100 ta maqsad belgilab olingan. Undagi 5 ta maqsad va 18 ta vazifa bevosita umumiy oʻrta taʼlim bilan bogʻliq.

Taraqqiyot strategiyasining 42-maqsadiga koʻra, 2026-yilga qadar oʻquv dasturlari va darsliklar ilgʻor xorijiy tajriba asosida toʻla qayta koʻrib chiqilib, amalda joriy etiladi⁹². Milliy oʻquv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan, 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanmalar hamda mobil ilovalar yaratiladi. Milliy oʻquv dasturi boʻyicha yangi metodikalarga oʻqituvchilarni oʻqitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026-yilga qadar jami 769 ta videodars yaratiladi. Umumtaʼlim maktablarida darslik va oʻquv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan oʻtkazish tizimi yoʻlga qoʻyiladi.

Milliy o'quv dasturini joriy qilish bo'yicha ishlarni Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi amalga oshiradi. Xalq ta'limi vazirligining 2020-yil 31-martdagi "Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish to'g'risida"gi buyrug'i asosida xalqaro talablarga javob beruvchi umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish boshlangan⁹³. Uning loyihasi yuqori salohiyatli milliy va xalqaro ekspertlar, UNICEF, USAID va boshqa xalqaro tashkilotlarning maslahatchilari ishtirokida

⁹² 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son farmoni va uning 1-ilovasi – // Elektron manba. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

⁹³ Zamonaviy darsliklar qanday bo'lishi kerak? – // Elektron manba. O'zbekiston Milliy axborot agentligi sayti: <http://uza.uz/posts/208815>

tayyorlandi. Bunda Finlandiya, Singapur, Koreya Respublikasi, Angliya kabi ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarning tajribalari o'rganildi.

Ushbu davlatlarning tajribalari o'rganilishiga ta'lim sifatini baholash xalqaro dasturlarining tadqiqotlari natijalari ham asos bo'ldi. Tanlab olingan davlatlarning PISA, PIRLS, TIMSS reytingidagi o'rinlari, bunday natijalarga erishish yo'llariga e'tibor qaratildi. Shu asosda xalqaro tajriba va andozalarga moslashtirilgan yangi o'quv dasturlari, darsliklar joriy qilinmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning 15 yoshli o'quvchilarning ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA – o'quvchilar yutuqlarini baholash xalqaro dasturi, Ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA)ning TIMSS – matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoringi dasturi tadqiqotlari natijalari e'tiborga molik.

O'quvchilarni PISA, PIRLS, TIMSS xalqaro dasturlari imtihonlariga tayyorlash, tadqiqot natijalariga ko'ra zarur xulosalar chiqarish, ta'lim mazmuni va jarayoniga kerakli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu bois Milliy o'quv dasturi asosida yangilanayotgan darsliklarga xalqaro baholash dasturlarining baholash mezonlari va mexanizmlariga javob beradigan, o'quvchilarni ana shu dasturlarning imtihonlariga tayyorlashga xizmat qiladigan materiallar ham kiritilyapti.

Masalan, "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligidan o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan, PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlari talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlar joy olgan. Bunday topshiriqlar vositasida o'quvchida matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Matematika fani bo'yicha ham tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda yangiliklar kiritilyapti. Jumladan, matematika fanini o'qitishga xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, baholash me'zonlari va mexanizmlari mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holdajoriy etilmoqda.

Biologiya fani bo'yicha esa PISA va TIMSS xalqaro baholash dasturlari talablariga mos keladigan, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga

yoʻnaltirilgan amaliy mashgʻulotlar, laboratoriya ishlari hamda mustaqil bajarishga va ijodiy, kreativ fikrlashga undovchi topshiriqlar ishlab chiqilmoqda.

Milliy oʻquv dasturi asosida tayyorlanayotgan boshqa fanlarning darsliklari, mashq daftarlari va oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanmalarda ham xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash, ularning oʻlchov va meʼzonlarini hisobga olish koʻzda tutilgan.

Taʼlim sifatini baholash boʻyicha xalqaro dasturlar turli fanlar boʻyicha umumiy bilim darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy taʼlim tizimidagi farqlarni aniqlashga koʻmaklashadi.

Ayni paytda Milliy oʻquv dasturi asosida yaratilgan va sinov-tajribadan oʻtgan 1- va 2-sinf darsliklari allaqachon amaliyotga joriy etildi. Respublika taʼlim markazi maʼlumotiga koʻra, 110 nomdagi 1-sinf, 74 nomdagi 2-sinf darsliklari 7 ta tildagi tarjimalari bilan tayyorlandi. Darsliklarni tayyorlashda 200 ga yaqin muallif qatnashdi. Darsliklarning asosiy isteʼmolchisi boʻlgan oʻquvchilar fikrini olish maqsadida taʼlim muassasalarida tajriba-sinovdan oʻtkazish tizimi joriy etildi.

Milliy oʻquv dasturi 6 ta qismdan iborat: umumiy oʻrta taʼlimning malaka talablari; umumtaʼlim fanlarining konsepsiyalari; umumiy oʻrta taʼlimning oʻquv rejasi; umumtaʼlim fanlarining oʻquv dasturlari; umumtaʼlim fanlarini oʻqitish metodologiyasi; baholash tizimi.

Mutaxassislar fikricha, “Milliy oʻquv dasturi amaldagi davlat taʼlim standarti, oʻquv dasturlarini tanqidiy tahlil qilish, keng jamoatchilikning darsliklarning mazmuniga nisbatan bildirgan fikr-mulohazalari, taʼlimning keyingi bosqichi hamda zamonaviy mehnat bozorining real talablari asosida, xorijiy davlatlarning taʼlim sohasida erishgan natijalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilmoqda”⁹⁴.

Xoʻsh, Milliy oʻquv dasturi asosida qanday yangilik va oʻzgarishlar joriy etilmoqda? Oldingi oʻquv dasturlari mazmuni asosan foiz nazariyadan iborat boʻlib, oʻqitish metodikasi yodlatishga yoʻnaltirilgan edi. Endi oʻquv mazmunining yarmi nazariya, yarmiamaliyotdan iborat boʻladi va asosiy urgʻu oʻquvchining mustaqil faoliyatini qoʻllab-quvvatlashga beriladi.

Ilgari oʻquv dasturlarida baholash faqat eslab qolingan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida oʻquvchilarda shakllangan koʻnikmalar baholanadi.

Fanlar soni va oʻquv yuklamalari optimallashtirilib, oʻquvchilar qiziqishiga koʻra fanlarni tanlab oʻqish imkonini beruvchi variativ oʻquv dasturlar asosida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoni ham yaratiladi.

Milliy oʻquv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda oʻqitiladi. Bunda asosiy eʼtibor mustaqil oʻrganish, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, ijodkorlik, tizimli va mantiqiy fikrlash kabi XXI asr koʻnikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Endi fan

⁹⁴ M. Pardayeva. Umumiy oʻrta taʼlimning milliy oʻquv dasturini yaratish: tanqiddan-tahlil, tajribadan-natija, sifatdan- taraqqiyot sari // Umumiy oʻrta taʼlim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va taʼlim muhiti. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020. – 4-bet .

mavzulari darsliklardan bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo‘naltirilgan tarzda joy oladi.

Ilgarilari o‘quv materiali asosan darslik bilan cheklangan bo‘lsa, endi darslikdan tashqari o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma, o‘quvchi mashq daftari, multimedia vositalari va raqamli kontent ham taqdim etiladi. Bugungi kun o‘quvchisi internetga oshno, zamonaviy texnika va texnologiyadan to‘laqonli foydalana oladi. Demak, uni darsga, kitobga, bilimga qiziqtirish, e‘tiborini egallash uchun zamonaviy yondashuv talab etiladi. Darsliklar bilan birga multimedia ilovalari va boshqa raqamli mahsulotlar ham ishlab chiqilayotgani bu yo‘ldagi muhim qadamdir.

Yangilanayotgan darsliklar va boshqa o‘quv materiallari o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishga, ularda tanqidiy va ijodiy tafakkurni o‘stirishga qaratilgan. Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yoshlar esa mamlakatning ertangi istiqboli va taraqqiyotining hal qiluvchi kuchidir.

Foydalanilgan manbalar:

1. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son farmoni va uning 1-ilovasi – // Elektron manba. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. Umumiy o‘rta ta’lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta’lim muhiti. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020.
3. Н. М. Воскресенская. Опыт разработки стандартов образования в зарубежных странах // Вопросы образования (Россия). – 2004. – №3.
4. Curriculum: National and State Standards. Common Core State Standards Initiative
// Elektron manba: <https://www.educationworld.com/standards/>
5. Zamonaviy darsliklar qanday bo‘lishi kerak? – // Elektron manba. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi sayti: <http://uza.uz/posts/208815>
6. Milliy o‘quv dasturi loyihalari, loyiha bo‘yicha taqdimotlar. – // Elektron manba. Respublika ta’lim markazi rasmiy telegram kanali: https://t.me/edurtm_uz

WORDLY
KNOWLEDGE